

““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan  
o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga mikrokredit  
berish tartibi haqida nizom”ga  
**4-ilova**

**Mikrokredit shartnomasining namunaviy shakli**  
(ushbu Nizom 19-bandining “a” kichik bandi bo‘yicha)

Mikrokreditning to‘liq qiymati:  
\_\_\_\_\_(\_\_\_\_\_) foiz

**MIKROKREDIT SHARTNOMASI**

20 \_\_\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki “\_\_\_\_\_” bank xizmatlari ofisi  
(vakolatli bank xizmatlari markazi) (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi (boshlig‘i)  
Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomonidan, va  
o‘zini o‘zi band qilgan shaxs \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda  
– Qarzdor/mijoz), ikkinchi tomonidan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

**1-§. Shartnoma predmeti**

1. Bank ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida Qarzdorga/mijozga \_\_\_\_\_  
(\_\_\_\_\_) so‘m mikrokredit beradi, shundan \_\_\_\_\_(\_\_\_\_\_) so‘mi  
garovni (sug‘urtani) rasmiylashtirish uchun ajratiladi.
2. Mikrokredit \_\_\_\_\_ ajratiladi.  
(*naqd pulsiz shaklda yoki naqd pulda*)
3. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan mikrokredit hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli  
mikrokredit hisobvarag‘i ochadi.

**2-§. Shartnoma qiymati**

4. Mikrokreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida \_\_\_\_ % miqdorida belgilandi.  
Mikrokredit mablag‘i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda,  
muddati o‘tkazilgan qarzdorlik uchun mikrokreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida \_\_\_\_%  
miqdorida o‘rnatiladi.
5. Mikrokredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash tomonlarning o‘zaro  
kelishuviga muvofiq \_\_\_\_\_ usulida amalga oshiriladi.  
(*differensial yoki annuitet*)

6. Bank mikrokreditdan foydalanganlik uchun foizni Qarzdorga/mijozga haqiqatda berilgan  
mikrokredit bo‘yicha asosiy qarzning qoldig‘iga nisbatan ushbu Shartnomada belgilangan nominal  
stavka bo‘yicha hisoblaydi. Bunda, mikrokreditdan foydalanganlik uchun foiz mikrokredit  
mablag‘i Qarzdorning/mijozning hisobvarag‘iga o‘tkazilgan yoki Qarzdorga/mijozga naqd pulda  
berilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Mikrokredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash ushbu Shartnomaga  
ilova qilingan mikrokreditni qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Mikrokredit to‘lovi  
dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi ish  
kunida dam olish kunida hisoblangan foizni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Qarzdordan/mijozdan mikrokreditning joriy to‘lovi uchun mikrokreditni qaytarish jadvalida  
belgilanganga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, u holda Bank kelib tushgan mablag‘ning  
ortiqcha qismini qarzdor/mijoz mikrokrediti bo‘yicha asosiy qarzni so‘ndirishga yo‘naltiradi  
hamda mikrokredit qiymatini qayta hisoblaydi.

Mikrokreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so‘ng mikrokredit bo‘yicha  
moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarganda, shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan

mikrokredit qisman muddatidan oldin so‘ndirilishi munosabati bilan mikrokredit bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq mikrokredit to‘lovlaring miqdori o‘zgarganda Bank mikrokreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, mikrokreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo‘lgan mikrokreditni qaytarish jadvali o‘z kuchini yo‘qotadi.

7. Qarzdorning/mijozning mikrokredit bo‘yicha amalga oshirgan to‘lov qiymati ajratilgan mikrokredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, kelib tushgan pul mablag‘i ushbu Sharhnomaga‘yicha qarzdorlikni to‘lashga quyidagi ketma-ketlikda yo‘naltiriladi:

- a) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;
- c) jarima va penya;
- d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

### **3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

8. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) Qarzdorning/mijozning to‘lovga layoqatilik qobiliyatini yanada to‘laroq tahlil qilish uchun undan qo‘shimcha hujjatlar talab qilish, joyiga chiqqan holda o‘rganish;
- b) Qarzdor/mijoz mikrokreditdan shartnoma tuzilgan kundan e’tiboran bir oy ichida foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida qarzdorni/mijozni yozma ravishda xabardor etish orqali ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- c) mikrokredit belgilangan muddatda so‘ndirilmaganda, mikrokredit qaytarilishi yuzasidan ushbu Sharhnomalarida belgilangan tegishli choralarini ko‘rish;
- d) Qarzdorda/mijozda asosiy qarz va/yoki foiz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik paydo bo‘lganda, Qarzdorning/mijozning bank kartasi, omonat va boshqa depozit hisobvaraqlaridan ushbu qarzdorlikni akseptsiz tartibda undirish (bunda Qarzdorning/mijozning mikrokredit bo‘yicha qarzdorligini so‘ndirish uchun uning bank kartasi (omonat va boshqa depozit) hisobvarag‘idan mablag‘ Qarzdor/mijoz topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, bank xizmatlari ofisi (vakolatlari xizmatlari markazi) tomonidan mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorga/mijozga uning bank kartasi (omonat va boshqa depozit) hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko‘rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi);
- e) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish;
- f) Qarzdor/mijoz talabnomada belgilangan muddatda ko‘rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da‘vo bilan murojaat etish.

9. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- a) mikrokreditni Qarzdorga/mijozga 20 yil “\_\_\_” dan 20 yil “\_\_\_” gacha bo‘lgan muddatga berish;
- b) Qarzdorning/mijozning so‘rovi bo‘yicha mikrokredit hisobvarag‘ining holatiga oid ko‘chirmani taqdim qilish;
- c) mikrokreditni muddatidan oldin undirish sababi haqida Qarzdorni/mijozni xabardor etish;
- d) Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Sharhnomada nazarda tutilgan mikrokreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur mikrokredit bo‘yicha mablag‘ berishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmsandan Qarzdorga/mijozga mikrokredit berish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;
- f) mikrokredit bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog‘lash usulidan, shu

jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, Qarzdorga/mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida mikrokreditni qaytarish grafigini ilova qilgan holda xabar berish;

g) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, Qarzdordan/mijozdan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash;

h) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada talabnomaliga tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash usullari, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha Qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi);

i) Qarzdordan/mijozdan mikrokreditning joriy to'lovi uchun mikrokreditni qaytarish jadvalida belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini mikrokreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish hamda mikrokredit qiymatini qayta hisoblash;

j) Qarzdor/mijoz tomonidan mikrokredit bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langandan so'ng, ushbu qarzdorlik bo'yicha amalga oshirilgan oxirgi to'lov sanasining keyingi 3 ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida mikrokredit bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganligi va ushbu Shartnoma bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot joylashtirish.

10. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) mikrokreditning o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;

b) ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin Qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag'i olingunga qadar bo'lган davrda mikrokredit olishdan bepul asosda voz kechish;

d) mikrokredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtida muddatidan oldin to'liq to'lagan holda Bank bilan ushbu Shartnomanini muddatidan oldin bekor qilish.

11. Qarzdor/mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) mikrokredit ajratilgunga qadar mikrokredit ta'minotiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish;

b) mikrokredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni o'z vaqtida so'ndirish;

d) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган boshqa holatlarga oid o'zgarishlar to'g'risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

12. Tomonlar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralarini qo'llaniladi.

#### **5-§. Nizolarni hal qilish**

13. Bank va Qarzdor/mijoz, tomonlarning o'zaro roziligiga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llashga, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali hal qilishga haqli hisoblanadi.

14. Qarzdor/mijoz nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan ushbu Shartnoma 9-bandining "h" kichik bandida qayd etilgan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, Bank sudga da'vo bilan murojaat etadi.

#### **6-§. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar**

15. Tomonlar shartnoma tuzish, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib

oldi.

16. Tomonlar ushbu Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

17. Har bir tomon shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

18. Tomonlar mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'yaydi.

19. Qonunga xilof ravishda olingan daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi tomonlarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga yo'l qo'yaydi.

20. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir tomon ikkinchi tomonni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

21. Tomonlar tovarlar, xizmatlar va ishlarni realizasiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi tomonlarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmagligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalananmaslik;

d) ularni faqat tomonning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalg qilish;

e) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmslik.

22. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

23. Agar bir tomonga boshqa tomonning Shartnomaning 18-bandida belgilangan majburiyatlarning buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tomonni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko'riliishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qiladi.

24. Bir tomonning talabi bo'yicha ikkinchi tomon tegishli choralar ko'rmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, birinchi tomon shartnomani bir taraflama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 7-§. Sanksiyalar ro'yxatiga oid qo'shimcha shartlar

25. Qarzdor/mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklow va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Shartnoma imzolanishi bilan Qarzdor/mijoz tomonidan Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklow va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

26. Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko'zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan har qanday shaxslar

bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

27. Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo‘yicha to‘lovlarini amalga oshirmaydi.

28. Qarzdorning/mijozning Bankka taqdim etgan hujjat va ma’lumotlari yolg‘on, ishonchisiz va/yoki noto‘g‘ri bo‘lib chiqsa yoki ushbu paragrafda qayd etilgan shartlar Qarzdor/mijoz tomonidan bajarilmasa, Bank Qarzdorning/mijozning topshirig‘i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag‘ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo‘qotilishi uchun javobgar bo‘lmaydi.

29. Qarzdorga/mijozga Sanksiyalar ro‘yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralarini (pul mablag‘iga band solinishi, to‘loving rad etilishi va boshqalar) qo‘llanganligi uchun Bank javobgar emas va Sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlar tufayli ushbu Shartnoma bo‘yicha Bank o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Qarzdorga/mijozga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

30. Bank Qarzdorning/mijozning boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo‘yicha javobgarlikni Bank o‘z zimmasiga olmaydi.

31. Qarzdorning/mijozning topshirig‘ini bajarish tufayli Bankka nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo‘llanilsa, Qarzdor/mijoz Bankka nisbatan qo‘llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplab berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

### **8-§. Shartnomaning boshqa shartlari**

32. Ushbu Shartnomaning ilovasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

33. Mikrokredit bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o‘tgan kun uchun to‘lov muddati o‘tgan foiz qiymatidan Bankka \_\_%, lekin muddatida to‘lamagan foiz qiymatining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi (agar mikrokredit shartarida muddati o‘tgan foiz qarzdorligiga penya o‘rnatilgan bo‘lsa). Penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foiz qarzdorligini to‘lashdan ozod qilmaydi.

34. Bank qarzdor/mijoz uchun ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to‘lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

35. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

36. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o‘zaro da’volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

37. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o‘zgartirishlar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

38. Mazkur Shartnomada ko‘zda tutilmagan holatlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi normative-huquqiy hujjatlari qoidalari qo‘llaniladi.

### **9-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari**

Bank:	Qarzdor/mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ STIR: _____	Telefon: _____
Bank kodi: _____	JSHSHIR: _____
Bank hisobvarag‘i: _____	Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma]lumotlari: _____
Boshqaruvchi (boshliq): _____	
Muhr	Imzo: